

O‘QUVCHI YOSHLAR ORASIDA NOXUSH HOLATLARNING OLDINI OLISH: ICHKI MOTIVATSIYA VA O‘ZINI ANGLASHNING AHAMIYATI

Rejapova Layloxon Xurmatjon qizi

Farg‘ona viloyati Quva tumani 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Azimova Barnoxon Rustamaliyevna

Farg‘ona viloyati Quva tumani 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchi yoshlar orasida uchraydigan noxush holatlarning oldini olishda ichki motivatsiya va o‘zini anglash jarayonining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, ijobiy xulq-atvorni shakllantirish va salbiy holatlarning oldini olish bo‘yicha psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: noxush holatlar, o‘quvchi, ichki motivatsiya, o‘zini anglash, psixologiya, profilaktika, rivojlanish, tarbiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается значение внутренней мотивации и процесса самопознания в предотвращении негативных явлений среди учащейся молодежи. Также анализируются психологические подходы к обеспечению психологической устойчивости учащихся, формированию позитивного поведения и профилактике негативных состояний.

Ключевые слова: негативные явления, учащийся, внутренняя мотивация, самопознание, психология, профилактика, развитие, воспитание.

ANNOTATION

This article highlights the importance of internal motivation and self-awareness in preventing negative situations among students. It also analyzes psychological approaches to ensuring students' emotional stability, developing positive behavior, and preventing adverse conditions.

Keywords: negative situations, student, internal motivation, self-awareness, psychology, prevention, development, education.

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchi yoshlar orasida turli noxush holatlar — intizomsizlik, agressiv xulq, zararli odatlarga moyillik va ruhiy beqarorlik kabi muammolar uchrab turadi. Ushbu holatlarning oldini olishda faqat tashqi nazorat emas, balki o‘quvchining

ichki dunyosiga ta'sir etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ichki motivatsiya va o'zini anglash jarayonlarini rivojlantirish bu borada samarali natija beradi.

O'zini anglash esa shaxsning o'zini tushunishi, o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashi bilan bog'liq jarayondir. O'quvchi o'zini anglagan sari o'z xatti-harakatlariga mas'uliyat bilan yondashadi. Bu esa noxush holatlarning kamayishiga olib keladi. Yoshlar o'rtasida noxush holatlar, jumladan jinoyatchilik, huquqbuzarlik, o'z joniga qasd qilish (suisid), stress va depressiyaning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar va profilaktik tadbirlar shuni ko'rsatadiki, bu boradagi asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Profilaktik tadbirlar va hamkorlik: Ichki ishlar organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni barvaqt oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etiladi. Bu tadqiqotlar, yoshlarning ruhiy holatini tushunish va ularni salbiy illatlardan qaytarish mexanizmlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

2. Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash: Yoshlar o'rtasida stress va depressiyani oldini olish hamda psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Stressning oldini olish va uni yengish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqilishi ularning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi.

3. Ijtimoiy-psixologik omillar: Yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarini tahlil qilish va oldini olish, ularning deviant xulq-atvorini oldini olish maqsadida oila institutlari faoliyatini kengaytirish lozim.

4. Huquqbuzarliklarning oldini olish: Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jihatdan o'rganish va bartaraf etish muhim.

5. Oila va ta'lim: Noxush vaziyatlarning oldini olishda oiladagi muhit, ota-onaning farzand tarbiyasiga mas'uliyati va ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar asosiy rol o'ynaydi.

Ushbu chora-tadbirlar yoshlarni "oq va qora"ni farqlashga o'rgatish va ularning baxtli istiqbolini ta'minlashga qaratilgan. O'quvchilar bilan ishlashda psixologlar ichki motivatsiyani shakllantirish uchun turli treninglar, suhbatlar va rag'batlantirish usullaridan foydalanadi. Maqsad qo'yishga o'rgatish, kichik yutuqlarni e'tirof etish va ijobiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir.

Shuningdek, o'zini anglashni rivojlantirish uchun o'quvchilar bilan individual suhbatlar, o'zini baholash mashqlari va refleksiya usullari qo'llaniladi. Bu orqali o'quvchi o'z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi.

Oila va maktab hamkorligi ham muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar farzandining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, unga ishonch bildirishi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berishi zarur. O'qituvchilar esa ijobiy muhit yaratib, o'quvchini rag'batlantirishi lozim.

Yoshlar orasida noxush holatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik hamda huquqiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda yoshlar huquqbuzarligining asosiy sabablari sifatida oilaviy muhitdagi muammolar, tarbiyadagi bo'shliqlar, huquqiy bilimlarning yetarli emasligi va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar ko'rsatib o'tiladi. Avvalo, oila instituti yosh shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar e'tiborining yetishmasligi, oiladagi nizolar, nazoratning sustligi yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noxush holatlar sodir etgan yoshlarning aksariyati nosog'lom ijtimoiy muhitda voyaga yetgan bo'ladi.

Bundan tashqari, yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi ham huquqbuzarliklarning muhim sabablaridan biridir. Qonun normalarini bilmaslik yoki ularga befarq munosabatda bo'lish yoshlarning mas'uliyatsiz xatti-harakatlariga olib keladi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasida huquqiy bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ularni turli salbiy oqimlar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, ishsizlik, moddiy ta'minotning pastligi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etilmasligi ham yoshlar orasida huquqbuzarliklarning ko'payishiga zamin yaratadi. Bo'sh vaqtning nazoratsiz qolishi yoshlarning noqonuniy faoliyatga jalb etilish xavfini oshiradi.

Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlari, avvalo, profilaktik yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Profilaktika noxush holatlar sodir etilishidan avval uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Birinchi navbatda, huquqiy tarbiya va huquqiy ongni shakllantirish asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni samarali o'qitish, huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, yoshlar bilan huquqiy mavzularda davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish ularning qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Oila, ta'lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi tizimli hamkorlik yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali natija beradi. Ayniqsa, mahalla tizimining yoshlar bilan ishlashdagi faolligi ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi.

Uchinchidan, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish muhim profilaktik mexanizm hisoblanadi. Sport to'garaklari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual klublar va ko'ngilli faoliyatlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi hamda ularni salbiy odatlardan uzoqlashtiradi.

Bugungi kunda yoshlar orasida noxush holatlarning oldini olishda zamonaviy yondashuvlar tobora keng qo'llanilmoqda. Xususan, psixologik xizmatlar, ijtimoiy

reabilitatsiya dasturlari va mentorlik tizimi yoshlar bilan individual ishlash imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Onlayn huquqiy maslahat platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilayotgan huquqiy targ‘ibot ishlari yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, “xavf guruhi”ga kiruvchi yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini erta aniqlash va psixologik yordam ko‘rsatish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim natijalar bermoqda. Bu esa profilaktika ishlarining samaradorligini oshiradi.

O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi ularning faolligini, o‘rganish sifatini, mavzuga bo‘lgan e‘tiborini va yakuniy natijalarini bevosita belgilaydi. Agar o‘quvchi ichidan o‘qishga qiziqsa, o‘qish jarayonida faollik ko‘rsatsa va o‘zini sinab ko‘rishga intilsa, u yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi. Motivatsiyaning ikki turi — ichki (intrinziq) va tashqi (ekstrinziq) — ayni paytda o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ichki motivatsiya — o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, ustunlik hissi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi orqali paydo bo‘ladi. Tashqi motivatsiya esa berilgan mukofotlar, baholar, rag‘batlar, ota-onaning kutganlari, jamiyat va muhit tomonidan shakllanadi. Self-Determination Theory (o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi) nazariyasiga ko‘ra, motivatsiyaning barqarorligi va sifatini oshirish uchun shaxsga uchta psixologik ehtiyoj — avtonomiy, kompetentlik, ijtimoiy bog‘lanish — qondirilishi muhimdir.

Hozirgi ta‘lim muhitida ko‘plab o‘qituvchilar va ta‘lim siyosatchilari o‘quvchilarning motivatsiyasini qanday shakllantirish mumkinligini izlamoqda. Ushbu maqolada ichki va tashqi omillarni ko‘rib chiqib, ular qanday ta‘sir ko‘rsatishini va qanday pedagogik strategiyalar orqali kuchaytirish mumkinligini muhokama qilamiz.

Agar o‘qish materiallari o‘quvchining qiziqish doirasiga mos kelsa, darslar mazmuni unga jozibali bo‘lsa, motivatsiya oson paydo bo‘ladi. Burke va boshq. tadqiqotida “love of learning” (o‘rganishni sevish) va “flow” tajribalari bilan o‘qish natijalari o‘rtasida sezilarli korrelyatsiya aniqlangan.

O‘quvchi o‘qiyotgan mavzuning o‘z hayoti yoki kelajakdagi maqsadlari bilan bog‘liqligini anglasa, ichki motivatsiya oshadi. Harackiewicz va boshq. tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchiga dars mazmunining kundalik hayot bilan bog‘liqligini o‘ylatish uni yanada motivatsiyalaydi (utility value intervention)

O‘quvchilarga tanlov imkoniyati berilsa (masalan, loyiha mavzularini tanlashda), ular o‘z ishlariga “egalik” his qiladi va motivatsiyasi oshadi. Self-Determination Theory nazariyasi shuni ta‘kidlaydiki, avtonomiyaning mavjudligi ichki motivatsiyani mustahkamlaydi.

O‘quvchi o‘z qobiliyatiga ishonmasa, qiyin topshiriqlarda motivatsiyasini yo‘qotadi. Cognitive Evaluation Theory (CET) nazariyasi bo‘yicha, tashqi rag‘batlar

(masalan, mukofotlar) faqat kompetentlik hissini oshirsa, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlashi mumkin; aks holda, ularni bekorlash ichki motivatsiyani pasaytirishi mumkin. O'quvchining intellektual salohiyati, avvalgi bilimi, o'rganish strategiyalari ham ichki motivatsiyaning shakllanishida rol o'ynaydi. Indonesian tadqiqotida ichki omillar (sog'liq, iste'dod, qiziqish) o'qish natijalarini sezilarli ta'sir qilgani aniqlangan.

Ota-onaning ta'limga bo'lgan munosabati, qo'llab-quvvatlashi, kutganlari, o'qishga bo'lgan qiziqishlari, uy sharoiti motivatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, oilaviy muhit va ota-onalarning rag'batlari motivatsiyaning shakllanishida muhim ekanligi ta'kidlanadi. Tengdoshlardan rag'bat, o'zaro hamkorlik, o'quv guruhlarining ijobiy muhit hosil qilishi motivatsiyani oshiradi. Dörnyei tadqiqotlari til o'rganishda sinfdoshlarning ichki guruh dinamikasi va motivatsiyaga ta'sirini ko'rsatadi. Dars xonasi sharoiti, texnologik resurslar, o'quv materiallari sifati, laboratoriyalar, kutubxona va onlayn manbalar ham tashqi motivatsiyani qo'llab-quvvatlashi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlar orasida noxush holatlarning oldini olishda ichki motivatsiya va o'zini anglashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. To'g'ri psixologik yondashuv va hamkorlik orqali sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
4. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
5. Leontyev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – Moskva, 2004.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva, 2000.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York, 1985.
8. Bandura A. Social Learning Theory. – New York, 1977.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York, 1954.
10. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva, 2004.
11. Raqamli jamiyat va huquqiy madaniyat. – Toshkent, 2023.
12. Ziyo.net